




## **NAMANGAN VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA‘LUMOT**

*2020- yil 1- iyul holatiga ko‘ra  
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)*

## Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni


(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)



Mamlakatimizdagi kabi, viloyatimizda ham qulay ishbiarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Korxonalar va tashkilotlar soni

(2020-yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)



### Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkga ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

## Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

16 231



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

767



Oilaviy korxonona

164



Unitar korxonona

7 273



Xususiy korxonona

29




Aksiyadorlik jamiyati

452




Boshqalar

mas'uliyati cheklangan jamiyat



xususiy korxonona




### Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Mas'uliyati cheklangan jamiyat deb bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilab qo'yilgan miqdordagi ulushlarga bo'lingan jamiyat tan olinadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bo'lib zarar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.


Jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning firma nomi jamiyatning nomini, shuningdek "mas'uliyati cheklangan" degan so'zlarni o'z ichiga olishi kerak.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- iyul holatiga ko'ra)




## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



### Aksiyadorlik jamiyati:

#### Ustav fondi muayyan


aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat - aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi; - aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.

## Yangi tashkil etilgan korxonona va tashkilotlar soni


(yanvar-iyun oylarida)



## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-iyun oylarida)




## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi (2020-yil yanvar-iyun oylarida, umumiy sonidagi ulushi)



2020-yil yanvar-iyun oylarida 3 248 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 8,8% kamaygan. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 2 277 ta, xususiy korxonalar – 611 ta, oilaviy korxonalar – 243 ta, muassasalar – 25 ta va boshqalar – 92 tani tashkil etdi.

## Oilaviy korxonalar soni (1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yil 1-iyul holatiga ko'ra 767 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 328 taga yoki 1,7 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 735 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 303 taga yoki 1,7 martaga oshganligini ko'rish mumkin.


2020-yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 243 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 122 taga yoki 200,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)


Ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020-yil 1-iyul holatiga ko'ra 16 231 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 3 251 taga yoki 125,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 15 837 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 3 024 taga yoki 123,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020-yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2 277 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 154 taga yoki 6,3 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.




## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni (2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2020-yil 1-iyul holatiga ko'ra 258 tani tashkil etib, ulardan 250 tasi yoki 96,9 %i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 68 taga yoki 35,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020-yil yanvar-iyun oylarida viloyatimizda 31 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-iyun oylarida, birlikda)










## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni (2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



## Namangan viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)


Davlatlar	Jami	Shundan	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
 Rossiya Federatsiyasi	51	39	12
 Qozog'iston Respublikasi	12	8	4
 Qirg'iz Respublikasi	10	9	1
 Tojikiston Respublikasi	10	8	2

## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



## Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Namangan shahri (9 807 ta), Chust (2 327 ta), Namangan (2 026 ta), Uychi (1 845 ta) va To'raqo'rg'on (1 764 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Yangiqo'rg'on (1 444 ta), Norin (1 329 ta) hamda Mingbuloq (1 259 ta) tumanlari korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


## Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		Xorijiy korxonona	Qo'shma korxonona
Namangan viloyati	250	88	162
Namangan shahri	78	28	50
Mingbuloq	6	4	2
Kosonsoy	24	5	19
Namangan	13		13
Norin	11	4	7
Pop	24	8	16
To'raqo'rg'on	20	9	11
Uychi	18	3	15
Uchqo'rg'on	6	4	2
Chortoq	19	7	12
Chust	19	10	9
Yangiqo'rg'on	12	6	6

## Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2020-yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)




2020-yil 1-iyul holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, Namangan shahri (34,9 %), Chust (8,2 %), Namangan (7,2 %), Uychi (6,5 %), Kosonsoy (6,1 %), To'raqo'rg'on (6,2 %), Pop (6,1 %), Uchqo'rg'on (5,5 %), Chortoq (5,2 %), Yangiqo'rg'on (5,1 %), Norin (4,6 %), Mingbuloq (4,4 %) tumanglar hissalariga to'g'ri keladi.

## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2020-yil yanvar-iyun oylarida, birlikda)

2020-yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Namangan shahrida (20,5 %), Pop (10,2 %), Namangan (8,7 %), Uychi (8,1 %), To'raqo'rg'on (8,0 %), Chust (7,6 %), Mingbuloq (6,7 %), Kosonsoy (6,4 %), Norin (6,2 %), Yangiqo'rg'on (6,1 %), Uchqo'rg'on (5,8 %), Chortoq (5,7 %) tumanglari ulushiga ega.




## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimida soni

(2020-yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2020-yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)



2020-yil 1-iyul holatiga ko'ra mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning asosiy qismi Namangan shahri 6 285 ta (jamidagi ulushi 39,7 %), Uychi 1 105 ta (7,0 %), Namangan 1 064 ta (6,7 %), Pop 996 ta (6,3 %), Chortoq 954 ta (6,0 %), Kosonsoy 935 ta (5,9 %), Chust 851 ta (5,4 %) va Yangiqo'rg'on tumani 836 ta (5,3 %), Norin 758 ta (4,8%), To'raqo'rg'on 761 ta (4,8%) hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, eng kamlari Mingbuloq 570 ta (3,6 %), Uchqo'rg'on 722 ta (4,5 %), tumanlari hissalari to'g'ri keladi.

## Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni



(2020- yilning yanvar-iyun oylarida, birlikda)



2020-yil yanvar-iyun oylaridagi yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining asosiy qismi Namangan (78 ta), Yangiqo'rg'on (41 ta), To'raqo'rg'on (36 ta), Namangan shahri, Uychi (22 tadan), tumanglari hissalariga to'g'ri keladi. Aksincha, Chust, Norin (4 tadan), Kosonsoy (6 ta), Mingbuloq (8 ta) tumanglari korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

## Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2020- yilning yanvar-iyun oylarida, birlikda)



## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** - axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalar va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan, moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan yoki belgilangan muddatda ustav jamg'armalarini shakllantirmagan hamda tugatish jarayonida bo'lganligi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lgan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

**Namangan viloyat  
Statistik registrlarni  
yuritish bo'limi  
Tel.:71 230-84-96**